“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



Ashyoviy dalillarning protsessual maqomi shakllanishi: nazariy-huquqiy va kriminalistik tahlil

Saidolim Nuriddinov,
Ichki ishlar vazirligi
Ekspert-kriminalistika bosh markazi boshlig‘i, y.f.b.f.d (PhD)
e-mail: nuriddinovsaidolim81@gmail.com

Аннотация. Maqolada ashyoviy dalillarning jinoyat-protsessual isbotlash tizimidagi o‘rni nazariy-huquqiy jihatdan yaxlit tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 203–212-moddalari hamda kriminalistika nazariyasi asoschilarining ilmiy qarashlari negizida ashyoviy dalil tushunchasining huquqiy konstruksiyasi, uning doktrinal belgilari va tutash institutlardan farqlash mezonlari ochib berilgan. Dalillar harakati izchilligini ta'minlash institutining milliy qonunchilikda tizimli tartibga solinmaganligi asosiy muammo sifatida aniqlanib, qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. ashyoviy dalil, isbotlash nazariyasi, taalluqlilik, maqbullik, ishonchlilik, protsessual maqom, dalillar harakati izchilligi, kriminalistik ta'minot

Аннотация. В статье осуществлён целостный теоретико-правовой анализ места вещественных доказательств в системе уголовно-процессуального доказывания. На основе статей 203–212 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан и научных воззрений основоположников теории криминалистики раскрыты правовая конструкция понятия вещественного доказательства, его доктринальные признаки и критерии отграничения от смежных институтов. Обоснован семиэтапный механизм формирования процессуального статуса вещественного доказательства, каждый этап которого функционально соотнесён с критериями оценки доказательств. Отсутствие системного регулирования института обеспечения непрерывности движения доказательств выявлено как ключевая проблема, сформулированы предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова. вещественное доказательство, теория доказывания, относимость, допустимость, достоверность, процессуальный статус, непрерывность движения доказательств, криминалистическое обеспечение

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. The article provides a holistic theoretical and legal analysis of the place of physical evidence in the system of criminal procedural proof. On the basis of Articles 203–212 of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and the scholarly views of the founders of the theory of criminalistics, the legal construction of the concept of physical evidence, its doctrinal features and the criteria for distinguishing it from related institutions are revealed. A seven-stage mechanism for the formation of the procedural status of physical evidence is substantiated, each stage of which is functionally correlated with the criteria for evaluating evidence. The absence of systemic regulation of the chain-of-custody institution is identified as a key problem, and proposals for improving legislation are formulated.

Keywords. physical evidence, theory of proof, relevance, admissibility, reliability, procedural status, chain of custody, forensic support

So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari jinoyat-protsessual isbotlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi. Ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini tergov amaliyotini “taxmin”, “ehtimol” va “ichki ishonch” kabi iboralardan qonuniy tartibda aniqlangan, olingan, qadoqlangan, saqlangan va ekspert tadqiqotidan o‘tkazilgan dalillarga tayanish tamoyiliga izchil o‘tkazish tashkil etadi. Aynan shu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-122-son qarori ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini raqamli, genetik, biometrik va axborot-qidiruv texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan zamonaviy asosga o‘tkazish uchun huquqiy zamin yaratdi [2]. Bu esa ashyoviy dalillarning gnoseologik tabiati va protsessual maqomi masalasi nazariy jihatdan qayta anglashni taqozo etadi.

Kriminalistika nazariyasida ashyoviy dalillar alohida bilish tabiatiga ega manba sifatida e'tirof etiladi, ular voqelik to‘g‘risidagi axborotni verbal shaklda emas, balki moddiy olamdagi o‘zgarishlar – izlar, alomatlar va belgilar shaklida tashiydi. Fanning umumiy nazariyasini ishlab chiqqan R.S. Belkinning ta'kidlashicha, moddiy izning kriminalistik qiymati uning jinoyat hodisasi bilan sababiy bog‘liqlikda yuzaga kelgan axborotni obyektiv ravishda saqlab qolish qobiliyatida namoyon bo‘ladi [3]. Aynan shu xususiyat ashyoviy dalillarni an'anaviy ravishda “so‘zsiz guvohlar” deb atashga asos beradi, guvoh ko‘rsatuvidan farqli ravishda, moddiy obyekt subyektiv idrok xatolariga, manfaatdorlikka yoki xotira nuqsonlariga bog‘liq emas. Biroq bu nazariy afzallik so‘zsiz emas, balki shartlidir – u obyektning aniqlanishidan to sud tomonidan baholanishigacha bo‘lgan butun jarayonda yaxlitligi va haqiqiyligi uzluksiz ta'minlangan taqdirdagina amal qiladi. Ushbu shartning buzilishi “so‘zsiz guvoh”ni ishonchsiz manbaga aylantiradi, bu esa ashyoviy dalillar institutining markaziy muammosini belgilaydi.

Ashyoviy dalil tushunchasining huquqiy konstruksiyasini ochib berish uchun qonuniy ta'rifdan kelib chiqish zarur. Jinoyat-protsessual kodeksining 203-moddasiga muvofiq kelib

chiqishini, kimga tegishliligini, ma'lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo‘ldan-qo‘lga o‘tganligi yoki turgan joyi o‘zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo‘lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo‘lgan narsa ashyoviy dalil hisoblanadi [1].

Ushbu ta'rifning tahlili ashyoviy dalilning uchta belgisini ajratish imkonini beradi: *birinchisi*, moddiylik belgisi: dalil manbai sifatida faqat moddiy olamning obyekti ishtirok etadi; *ikkinchisi*, axborot tashuvchilik belgisi: narsa ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlashga xizmat qiluvchi fizikaviy alomatlarga ega bo‘lishi shart, zero alomatsiz narsa daliliy qiymatga ega emas; *uchinchisi*, protsessual rasmiylashtirilganlik belgisi: narsa qonunda belgilangan tartibda olinib, ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan va ishga qo‘shib qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Dastlabki ikki belgi mavjud bo‘lsa-da, uchinchisining yo‘qligi obyektni isbotlash vositasiga aylantirmaydi, bu qoida dalilning maqbullik talabidan bevosita kelib chiqadi.

Ashyoviy dalilni tutash institutlardan farqlash alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Yozma dalilda (JPKning 204-moddasi) axborot hujjatning mazmunida, unda bayon etilgan fikr orqali ifodalansa, ashyoviy dalilda axborot obyektning fizikaviy alomatlarida mujassamlashadi. Shu bois ayni bir hujjat ikki xil protsessual maqomda ishtirok etishi mumkin: mazmuni ahamiyatli bo‘lsa yozma dalil, undagi o‘zgartirish izlari, qo‘lyozma belgilari yoki biologik izlar ahamiyatli bo‘lsa ashyoviy dalil sifatida.

Raqamli dalillar institutining kodeksning 204²-moddasida mustaqil tartibga solinishi esa qonun chiqaruvchining raqamli axborotning o‘ziga xos tabiatini uning moddiy tashuvchidan nisbiy mustaqilligi, oson o‘zgartiriluvchanligi va aynan nusxalanuvchanligini e'tirof etganidan dalolat beradi. Ayni paytda raqamli axborot tashuvchisi (qurilma) ashyoviy dalil, undagi axborotning o‘zi esa raqamli dalil maqomida parallel ishtirok etishi mumkinligi amalda ikki protsessual rejimning uyg‘un qo‘llanilishini taqozo etadi.

Isbotlash nazariyasi nuqtayi nazaridan har qanday ashyoviy dalil uchta mezon – taalluqlilik, maqbullik va ishonchlilik bo‘yicha baholanadi. Taalluqlilik dalilning ish holatlari bilan obyektiv mazmuniy bog‘liqligini, maqbullik uning qonuniy manbadan va qonuniy tartibda olinganligini, ishonchlilik esa dalil tashiyotgan axborotning haqiqatga mosligini anglatadi. Sud ekspertizasi nazariyasi asoschilaridan A.I. Vinberg ta'kidlaganidek, ekspert tadqiqoti orqali olinadigan xulosaning isbotlash kuchi faqat tadqiqot metodikasining ilmiyligiga emas, balki tadqiqot obyektining protsessual jihatdan benuqson holatda ekspertga yetib kelishiga ham bog‘liqdir [4]. Shu ma'noda quyida tahlil etiladigan protsessual maqom shakllanishi mexanizmi mohiyatan ana shu uch mezonni izchil ta'minlashga qaratilgan huquqiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

vositalar tizimidir.

Ashyoviy dalillar bilan ishlash samaradorligi alohida protsessual harakatlarning mexanik yigʻindisi emas, balki jinoyatchilikka qarshi kurashning yaxlit kriminalistik ta'minoti tizimi doirasida yuzaga keladi. Milliy kriminalistika maktabida ham bunday tizimli yondashuv chuqur ildizlarga ega: Gʻ. A.Abdumajidov kriminalistik roʻyxatga olishni jinoyatlarni “issiq izidan” ochishning fundamental asosi sifatida baholagan [6]. Mazkur tizimning birlamchi boʻgʻini ariza va xabarlarni yagona axborot platformasida qayd etish, saqlash va tahlil qilish boʻlib, u “vaqt – makon – shaxs – buyum – voqelik” oʻrtasidagi bogʻliqliklarni, shu jumladan sun'iy intellekt vositalari yordamida, tezkor aniqlash imkonini beradi. Ikkinchi boʻgʻin tergovchi, tezkor xodim va ekspert-kriminalistdan iborat toʻliq tarkibli tergov-tezkor guruhining hodisa joyiga zudlik bilan yetib borishi boʻlib, bunda vaqt omili hal qiluvchi ahamiyatga ega, zero izlar tabiiy va antropogen ta'sirlar ostida tez degradatsiyaga uchraydi. Uchinchi boʻgʻin dalillarni toʻliq va qonuniy rasmiylashtirish boʻlib, uning puxta tashkil etilishi, boshqa jihatlar qatorida, iqrorlik koʻrsatuviga ortiqcha urgʻu berishni va shu asosda noqonuniy bosim xavfini bartaraf etishga xizmat qiladi. Toʻrtinchi boʻgʻin isbotlashda zamonaviy maxsus bilimlardan keng foydalanish orqali aybdorlik yoki aybsizlikni ilmiy asoslangan faktlar bilan aniqlash. Nihoyat, beshinchi, yakunlovchi boʻgʻin odil sudlovni ta'minlash boʻlib, unda ashyoviy dalillarning sifatli tadqiqi javobgarlikning muqarrarligi va aybsizlik prezumpsiyasining real amal qilish kafolati sifatida namoyon boʻladi; shu nuqtayi nazardan “isbotlanmagan ayb isbotlangan aybsizlikka teng” degan qoida butun tizimning aksiologik negizini tashkil etadi.

Ashyoviy dalilning ishdagi protsessual maqomi bir aktli hodisa emas, balki har birida muayyan huquqiy oqibat yuzaga keladigan ketma-ket bosqichlardan iborat jarayon boʻlib, aynan shu jarayonni yaxlit mexanizm sifatida tizimlashtirish mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini tashkil etadi. Ushbu mexanizmning birinchi bosqichi — obyektning aniqlanishi boʻlib, unda obyekt hali protsessual dalil emas, balki potensial daliliy manba hisoblanadi; kriminalistik jihatdan bu eng zaif bosqich sanaladi, zero aniqlanmagan iz mavjud boʻlmagan iz bilan teng, aniqlashdagi xato esa keyingi barcha bosqichlarda tuzatib boʻlmaydigan oqibatlarga olib keladi. Ikkinchi bosqich – obyektni qonuniy tartibda olish boʻlib, bunda obyekt tergov harakati doirasida protsessning nazoratiga oʻtadi va aynan shu yerda maqbullik mezonining asosi yaratiladi: olish tartibining buzilishi butun dalilni maqbul emas deb topishga sabab boʻlishi mumkin. Uchinchi bosqich – koʻzdan kechirish boʻlib, kodeksning 206-moddasiga koʻra, topilgan, olib qoʻyilgan yoki taqdim etilgan narsalar darhol koʻzdan kechirilishi, bunda narsaning ishga taalluqliligi haqida xulosa chiqarishga asos boʻladigan hamda uni boshqa narsalardan farqlovchi individual belgilar aniqlanishi lozim [1], darhollik talabi obyekt holatining oʻzgarishi xavfini minimallashtiruvchi protsessual kafolatdir.

Mexanizmning to‘rtinchi bosqichi narsani ashyoviy dalil deb e'tirof etish va ishga qo‘shib qo‘yish bo‘lib (kodeksning 207-moddasi), qaror bilan obyekt taalluqlilik mezoni bo‘yicha dastlabki bahodan o‘tadi va to‘laqonli protsessual maqomga ega bo‘ladi. Beshinchi bosqich qadoqlash va markirovka bo‘lib, u kodeksning 208-moddasida nazarda tutilgan yo‘qolish, shikastlanish, buzilish va aralashib ketishning oldini olish talablarini amalda ta'minlaydi hamda obyektning aynanligi (identikligi) kafolati sifatida ishonchlilik mezoniga xizmat qiladi. Oltinchi bosqich obyektni ekspertizaga yuborish yoki saqlashga topshirish bo‘lib, maxsus bilim talab etilganda obyekt ekspert tadqiqotiga yo‘naltiriladi, bunda ekspertiza xulosasi mustaqil dalil turi bo‘lsa-da, uning ishonchliligi tadqiqot obyektining avvalgi bosqichlarda yaxlit saqlanganligiga bevosita bog‘liq. Nihoyat, yettinchi bosqich dalilni ish materiallari bilan bog‘lash bo‘lib, dalil va u haqidagi protsessual hujjatlar yaxlit tizimga birlashmasa, daliliy axborot sud tomonidan tekshirish va baholash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi, binobarin isbotlash tizimiga to‘liq kirmaydi. Taklif etilayotgan modelning nazariy qiymati shundaki, u har bir bosqichni baholash mezonlaridan biriga funksional bog‘laydi: birinchidan uchinchigacha bo‘lgan bosqichlar taalluqlilikni aniqlashga, ikkinchi va to‘rtinchi bosqichlar maqbullikni ta'minlashga, beshinchidan yettinchigacha bo‘lgan bosqichlar esa ishonchlilikni kafolatlashga xizmat qiladi. Bu esa modelni amaliyotdagi e'tirozlarni tashxislash uchun analitik vositaga aylantiradi.

Ashyoviy dalillar ishonchliligining asosiy zaif bo‘g‘ini dalillarning harakati izchilligini ta'minlash instituti bilan bog‘liq. Kriminalistika metodologiyasini ishlab chiqqan N.P. Yablokov qayd etganidek, tergov harakatlarining ilmiy asoslangan izchilligi va tizimliligi daliliy bazaning ishonchliligini belgilovchi hal qiluvchi omildir [5].

Rivojlangan xorijiy yurisdiksiyalarda bu izchillik dalillar harakatining uzluksiz hujjatlashtirilgan zanjiri (chain of custody) instituti orqali ta'minlanadi: dalil kimga, qachon, qanday holatda va qanday asosda topshirilgani har bir o‘tishda qayd etiladi, zanjirdagi har qanday uzilish esa dalilning isbotlash kuchini shubha ostiga qo‘yadi. Milliy qonunchiligimizda ushbu institutning ayrim unsurlari mavjud bo‘lsa-da (kodeksning 208-moddasidagi saqlash va yuborish talablari hamda 212-moddasidagi shikastlaganlik yoki yo‘qotganlik uchun javobgarlik), ular yaxlit tizimga birlashtirilmagan: dalilning har bir harakatini majburiy hujjatlashtirish, mas'ul shaxslarni har bir bosqichda individuallashtirish va bu ma'lumotlarni markazlashtirilgan hisobga olish mexanizmi qonunda nazarda tutilmagan.

Ushbu nazariy-amaliy bo‘shliqni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni asoslash mumkin. Avvalo, Jinoyat-protsessual kodeksiga ashyoviy dalillar harakatining uzluksiz hujjatlashtirilishi tamoyilini mustahkamlovchi va dalilni qabul qilib olgan har bir subyektning identifikatsiyasi majburiyligini belgilovchi norma kiritish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ashyoviy dalillarning

yagona elektron reestrini joriy etish zarur: har bir dalilga noyob identifikator (shtrix-kod yoki QR-kod) biriktirilib, uning barcha harakatlari real vaqt rejimida qayd etilishi dalillarning almashtirilishi yoki yoʻqolishi xavfini sezilarli kamaytiradi va PQ-122-son qarorda belgilangan raqamlashtirish siyosatiga toʻla muvofiq keladi [2]. Nihoyat, qadoqlash va markirovkaning yagona texnik talablarini idoralararo normativ hujjat darajasida standartlashtirish lozim, zero ayni shu masala hozirda asosan idoraviy yoʻriqnomalar va amaliyot an'analari bilan tartibga solinmoqda, bu esa ishonchlilik mezonining ta'minlanishida beqarorlikka yoʻl ochadi.

Yuqorida oʻtkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga asos beradi: *birinchidan*, ashyoviy dalilning huquqiy konstruksiyasi moddiylik, axborot tashuvchilik va protsessual rasmiylashtirilganlik belgilarining birligidan iborat boʻlib, ulardan birortasining yoʻqligi obyektni isbotlash vositasi sifatida istisno etadi; *ikkinchidan*, ashyoviy dalilning protsessual maqomi yetti bosqichli mexanizm doirasida shakllanadi va har bir bosqich dalilni baholashning muayyan mezonini ta'minlashga funksional xizmat qiladi; ushbu model ham nazariy tizimlashtirish, ham amaliy xatolarni tashxislash vositasi boʻla oladi; *uchinchidan*, milliy qonunchilikda dalillar harakati izchilligini ta'minlash institutining tizimli tartibga solinmaganligi ashyoviy dalillar ishonchliligining asosiy zaif boʻgʻini boʻlib, uni kodeksni toʻldirish, ashyoviy dalillarning yagona elektron reyestrini joriy etish va qadoqlash-markirovka talablarini standartlashtirish orqali bartaraf etish mumkin. Taklif etilgan chora-tadbirlar ashyoviy dalillarga asoslangan isbotlashning ishonchliligini oshiribgina qolmay, aybsizlik prezumpsiyasining real amal qilishi va odil sudlovning sifatini mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси // Электрон манба: https://lex.uz/docs/111460#7235096.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги “Ички ишлар органларининг эксперт-криминалистика фаолиятини замонавий илм-фан ютуқларини кенг жорий этган ҳолда янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-122-сон Қарори // Электрон манба: https://lex.uz/ru/docs/5851527

3. Белкин Р.С. Курс криминалистики: В 3 т. — М.: Юристъ, 1997. Т. 1 — “Общая теория криминалистики” (408 б.).

4. Винберг А.И. Криминалистическая экспертиза в советском уголовном процессе». — М.: Государственное издательство юридической литературы (Госюриздат), 1956. — 220 б.

5. Криминалистика: Учебник / Отв. ред. Н.П. Яблоков. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юристъ, 2001. – 718 с.

6. Абдумажидов Ғ.А. Криминалистика. Дарслик. — Тошкент: ТДЮИ, 2003.